

TARJIMANING BADIY ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI

Maxmanova F. F.

Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

+998918114884

maxmanovafayruza8@gmail.com

Ilmiy rahbar: Yuldoshev D. N.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17397773>

Annotatsiya: ushbu maqolada tarjimaning badiiy adabiyotda tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda tarjimaning adabiy jarayon rivojidadagi o'rni, badiiy tafakkurni kengaytirishdagi hamda milliy til boyligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Tarjima jarayoni orqali o'zbek adabiyoti jahon adabiyoti bilan boyib, o'ziga xos badiiy an'analarni shakllantirganligi qayd etiladi. Shuningdek, maqolada tarjima san'atining bugungi kundagi ahamiyati va uning adabiy aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni haqida umumiy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy adabiyot, adabiy jarayon, madaniy aloqa, til boyligi, jahon adabiyoti.

Abstract: This article highlights the role and significance of translation in fiction. It analyzes the importance of translation in the development of literary processes, its contribution to expanding artistic thinking, and its role in enriching the national language. Through the process of translation, Uzbek literature has been enriched by world literature and has formed its own unique artistic traditions. The article also presents general views on the importance of the art of translation today and its role in strengthening literary and cultural relations.

Keywords: translation, fiction, literary process, cultural communication, linguistic richness, world literature.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение перевода в художественной литературе. Анализируется значение перевода в развитии литературного процесса, его вклад в расширение художественного мышления и обогащение национального языка. Отмечается, что посредством перевода узбекская литература обогатилась мировой литературой и сформировала свои собственные художественные традиции. Кроме того, в статье выражены общие мнения о современном значении искусства перевода и его роли в укреплении литературных и культурных связей.

Ключевые слова: перевод, художественная литература, литературный процесс, культурная связь, языковое богатство, мировая литература.

KIRISH

Tarjima — bu muayyan tildagi hujjatlar, matnlar, qo'lyozmalar, badiiy asarlardan tortib, maqol va iboralargacha bo'lgan til birliklarini yangi bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi. Eng qadimgi jamoalar davridayoq kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli tarjima jarayoni yuzaga kelgan va bugunga qadar bu soha o'z taraqqiyoti davomida sayqallanib, hayotimizning turli jabhalarida o'zining beqiyos o'rni va ahamiyatini kasb etib ulgurdi.

"Tarjima" tushunchasi ma'lum matn yoki asarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. XX asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Asqad Muxtor, Erkin

Vohidov, Abdulla Oripov va boshqalar tarjima sohasida barakali ijod qilishgan. Tarjimaning aynan badiiy tarjima sohasida M.Osim, N.Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V.Ro‘zimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.G‘afurov, M. Mirzoidov, T. Alimov va boshqalar professional tarjimon sifatida tanilganlar.

Badiiy tarjima o‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, romanlar, hikoyalar, she‘rlar, bir so‘z bilan aytganda, barcha turdagi nasriy va nazmiy adabiy asarlarni tarjima qilishga qaratilgan. Gomer va Sofoklni maktabda klassik ta‘limning bir qismi sifatida o‘qish tarix, siyosat, falsafa va yana boshqa ko‘plab fan sohalarini tushunishga yordam bersa, zamonaviy tarjimalarni o‘qish turfa xalqlar madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, hayot falsafasi va qarashlari, qolaversa, shu mamlakat tabiati va boshqa o‘ziga xosliklari haqida ajoyib taassurotlar uyg‘otadi. Ma‘naviy va intellektual kamolotga erishish jarayonida badiiy asarlarlar o‘qish nihoyatda katta ahamiyatga egadir, chunki badiiy kitoblar mutolaasi inson ongi va tafakkurini oshirishga va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari yosh kitobxonlar uchun jahon bolalar adabiyotining gultoji xisoblanmish Joan Rouling qalamiga mansub Garri Potter haqidagi 7 ta kitob ham ilk bor 2015-yilda ingliz tilidan bevosita o‘zbek tiliga o‘girildi. Ushbu fantastik sarguzasht roman eng xaridorgir kitoblar ro‘yhatidagi old pog‘onardan ko‘p yillardan beri tushmay kelmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘zbek mumtoz va zamonaviy asarlari dunyo tillariga tarjima qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Navoiy va Bobur asarlarini xorijiy tillarga taglama va badiiy tarjima qilish masalalari” mavzusida respublika konferensiyasini o‘tkazdi. Bu badiiy tarjimonlarga bo‘lgan talab tobora oshib borayotganligini va badiiy tarjima har qachongidan ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan murojatida tarjimaning madaniy hayotimizdagi ahamiyatini ta‘kidlab shunday dedi: “Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta‘kidlash lozim. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, (ularni) tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”.

ASOSIY QISM

Ayrim g‘arbiy olimlarining aytishlaricha, tarjimashunoslik bilan semiotika o‘rtasida yaqin aloqa mavjud. Tarjimashunos olim T.Xoks tarjima jarayonida e‘tiborga olish kerak bo‘lgan birinchi narsa bu tarjima lingvistik faoliyatning markaziy elementi ekanligi va shu sababdan uni semiotikaga bog‘lash to‘g‘riroq bo‘lishini aytib o‘tgan. Badiiy tarjimaning bir qator fanlar bilan bog‘liqligi tarjima maxsuliga albatta ta‘sir qiladi. Amaliyotda tez-tez uchrab turadigan muammo bu tarjimadagi adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalarini chalkashtirishdir. A.D.Shveytserning fikriga ko‘ra, adekvatlik tillararo kommunikativ aktning kechishi bilan bog‘liqdir, ya‘ni tarjima jarayonining kommunikativ sharoitlarga mos kelishini aniqlaydi. Sh.Sirojiddinov, G.Odilovalarning ta‘kidlashicha, adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo‘lib, unda asliyatning janriy-stilistik talablari, barcha lisoniy va g‘ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot va asliyat ruhi saqlangan bo‘ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo‘ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo‘lmaydi. V.Komissarovning fikriga ko‘ra, har qanday til belgisi odatda uch hil munosabatni,

ya'ni semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlarni o'zida mujassam etadi. Birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan, va uchinchi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosabatlardir. Shunday qilib, til belgisi semantik (denotativ), sintaktik va pragmatik ma'nolari bilan ajralib turadi. Q.Musayev fikriga ko'ra, pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy unsuri hisoblanib, ularning qayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ to'la-to'kis mosligini vujudga keltiradi. Natijada tarjima muqobil uslubiy xususiyat kasb etib, uni o'qigan kitobxon asliyat sohibi asar mutolaasidan oladigan taasurot darajasida ta'sirlanadi.

Badiiy tarjima nasr yoki she'riyatni bir tildan boshqa tilga olib o'tish san'atidir. Biroq, suhbatlar yoki rasmiy hujjatlarni tarjima qilishning texnik tabiatidan farqli o'laroq, adabiy asarni tarjima qilish har ikki tilda ham katta mulohaza va kuchli lingvistik qobiliyatni talab qiladi. Xorijiy tildagi adabiyotlar tasavvurimizni turli g'oyalar bilan boyitibgina qolmasdan, turli adabiy janrlar bilan tanishish va hikoya qilish mahoratining xilma-xilligini ham doimiy ravishda oshiradi. Darhaqiqat, Fyodor Dostoyevskiyning realistik-psixanalitik durdona asarlari, Gabriel Garsia Marquesning sehrli realistik ertaklari yoki Yelena Ferrantening insoniy munosabatlar haqidagi betakror fikrlarisiz dunyoni tasavvur qilish mahol. O'quvchida chuqur taassurot qoldiruvchi, uni fikrlar ummoniga g'arq qiluvchi va dunyoqarashni mislsiz kengaytirishga imkon beruvchi jahon adabiyotining bu beqiyos durdonalari mohir tarjimonlarimizning zahmatli mehnatlari tufayli dunyoga kelgan badiiy tarjimalarsiz sharq o'quvchisi, xususan, o'zbek kitobxonlariga yetib kelmas, kelganda ham biz ularga yashirilgan ma'naviy xazinadan bahramand bo'lolmas edik. Aynan adabiy tarjimonlar bebaho tarjimalari orqali bu bo'shliq yuzaga kelishini bartaraf etadilar va turli xalqlar mualliflarini butun dunyo bo'ylab yangi o'quvchilar guruhlarini bilan bog'laydilar. Tarjimada adabiyotning asl tilidagi nyuanslaridan tarjima tilida to'g'ri foydalanish va ularni mahorat bilan qo'llay bilish tarjimondan puxta lingvistik ko'nikma va kuchli madaniy bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Tarjimon asar g'oyasi va muallifning yozish uslubini tushungan holda bularning barchasini boshqa tilda sinchkovlik bilan takrorlash yo'lini topishi kerak bo'ladi. Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o'rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so'z boyligi talab qilinadi. Badiiy tarjimaning yana bir asosiy muammolaridan biri asl asarga sodiq qolish va asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg'u va kechinmalarni tarjimoni o'quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. Bu she'riy asar tarjimasida ayniqsa qiyin va dolzarb hisoblanadi. Bir qarashda bunday ko'rinmas-da, tarjimaning bu sohasi juda murakkab va badiiy tarjimonga juda ko'p qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy tarjimon har qanday murakkab vasiyatda ham o'quvchiga asl ma'noni yetkazish imkonini topishi kerak. Tarjima jarayonida tarjimon ham yozuvchi, ham shoir va hammuallif vazifasini bajarmog'i lozim. Ushbu murakkab jarayon tarjimondan ulkan bilim va malaka, ijodiy izlanish va matn mazmunini chuqur anglash bilan bir qatorda badiiy asar muallifining ijodiy uslubini saqlab qolishni talab qiladi.

XULOSA

Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat tarixining barcha tafsilotlarini ochiq, oshkora o'rganamiz. Hech bir xalq o'z qobig'ida, o'z-

o'zicha rivojlana olmaydi. U boshqa xalqlarning yutug'i, kamchiligi, tajribalarini o'zlashtirgan holda yuksaladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun esa albatta tarjima, tarjimashunoslik ilmiga bo'lgan ehtiyojni sezamiz. Badiiy tarjimaning eng muhim tamoyillaridan biri bu tarjimada har bir gapga alohida emas, balki yaxlitning bir qismi sifatida yondashish lozim va uni boshqa qismlar bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak. Shu sababdan tarjimon har bir gapning faqat aniq ma'nosini izohlamasdan, "badiiy obraz yaratish, umumiy kayfiyat, atmosfera va qahramonlarning tafsivi ustida ishlashi kerak. Bunda mos so'zlarni, strukturalarni va boshqa elementlarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, tarjimon asar tarjimasiga kirishishdan avval yuqoridagi talablarni muvofiqlashtirish orqaligina kitobxonga estetik zavq va ma'naviy ozuqa bo'luvchi ijod mahsulini yarata oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari (o'quv qo'llanma). – T., 2014.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Fan", 2005.
3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanma). – T., 2012.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari (Monografiya). – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2011.
5. Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami). – T.: Sharqshunoslik institute, 2012.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimaning-ba'zi-muammolari>.
7. <https://zenodo.org/record/5812779> tarjimada so'z tanlash masalasi yoki badiiy tarjimadagi muammolar.
8. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. B. – 16.
9. Попович А. Проблема художественного перевода. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 33. 130
10. Швейцер А. Д. К проблеме лингвистического изучения процесса перевода // Вопросы языкознания. М., 1970. № 4. 216 с. – 118 с.
11. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980. Стр.-101.
12. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода. Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: учеб. пособие. – М.: ЧеРо, 1999. С.-134.
13. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. С.65-67.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tarjima va adabiyot haqida aytgan fikrlari.
15. Hamidov.X.X. Tarjimashunoslik matnlari (o'quv qo'llanmasi). Toshkent 2012 .
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ5117 qarori.
17. Turaeva, U. (2021). COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH LEGAL TERMS LEGAL LINGUISTICS: HISTORICAL FOUNDATIONS, BASIC CONCEPTS AND ASPECTS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).